

KORRUPSIYA RIVOJLANISHGA QARSHI ILLAT

Hajiyev Tolibjon Hamidovich

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti Yuridika fakulteti talabasi.

e-mail: tolibjonhajiyev007@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14750088>

Annotatsiya. Bu maqola korrupsiyaning qanday yomon illat ekanligiga qaratilgan. Korrupsiya har qanday sohaga davlat boshqaruviga, rivojlanishiga, xalq hokimiyatini taminlashga, davlatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishi uchun o'ta jiddiy muammodir.

Kalit so'zlar: korrupsiya, pora olish, pora, jinoyat, poraxo'rlik, korrupsiyaga qarshi kurash, javobgarlik.

КОРРУПЦИЯ – ПОРОК, ПРОТИВОРЕЧАЩИЙ РАЗВИТИЮ

Аннотация. Эта статья посвящена тому, насколько коррупция является опасным пороком. Коррупция представляет собой серьезную проблему для любой сферы, особенно для государственного управления, развития, обеспечения народной власти, а также экономического и социального прогресса государства.

Ключевые слова: коррупция, взяточничество, взятка, преступление, мздоимств, борьба с коррупцией, ответственность.

CORRUPTION: AN OBSTACLE TO DEVELOPMENT

Abstract. This article focuses on the detrimental nature of corruption. Corruption poses a severe problem for any sector, particularly in state governance, development, ensuring public authority, and the economic and social progress of a nation.

Keywords: corruption, bribery, bribe, crime, graft, fight against corruption, accountability.

Demokratik davlatda erkin fuqarolik jamiyatini qurish bu murakkab va ko'p tizimli va o'ziga xos qiyinchiliklariga ega bo'lgan masaladir. Bunda davlat demokratik tamoyillarga, umume'tirof etilgan prinsiplarga va huquqiy asoslarga tayanadi. Bu jamiyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi uchun, balki undagi demokratik tizimga halaqit beruvchi, taraqqiyotga to'sqinlik qiluvchi kuchlarga qarshi turishda asos bo'lib xizmat qiladi. Demokratiya ya'ni xalq hokimiyatini qurish, "xalqni hokimiyatni birdan-bir manbai" darajasiga ko'targan har bir davlat bu asosiy tamoyilni amalga oshishiga raxna soluvchi g'oyalar va ularga xizmat qiluvchi omillarga qarshi turadi. Shunday omillardan biri – bu korrupsiyadir.

Bugungi kunda rivojlanib borayotgan, jahon hamjamiyati vakillarini tobora tashvishga solayotgan global muammolardan biri bo'lgan korrupsiya, pora olish jamiyat xavfsizligi va barqarorligi, iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy rivojlanishi va hukumatning institusional rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan illatlardan biridir. Pora olishga oid jinoyatlar hukumat vakillarining jamiyat oldidagi obro'siga putur yetkazibgina qolmay, ichki va tashqi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy aloqalarning samarali yo'lga qo'yilishida ham jiddiy muammo tug'diradi. Korrupsiya bilan bog'liq bo'lgan muammolarning keng talqin qilinishi va huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatida korrupsiyaga qarshi kurashga qaratilgan chora-tadbirlarning kuchaytirilishiga qaramay ushbu jinoyatni ildiz otib borishi uning mohiyatini yanada chuqurroq tahlil qilish va paydo bo'lish sabablarini to'liq o'rganishga undaydi. Poraxo'rlikni oldini olishga bo'lgan urinishlar har tomonlama puxta ishlab chiqilishi, bunda aholining milliy mentaliteti, siyosiy madaniyati, ijro etuvchi hokimiyat organlari ustidan nazoratni amalga oshiruvchi fuqarolik institutlarining rivojlanganlik darajasini ham qamrab olinishi lozim.

Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlar tajribasidan shu narsa ma'lum bo'lmoqdaki, jamiyat, davlat va shaxsning iqtisodiy ijtimoiy siyosiy manfaatlarini ta'minlash va muvozanatga keltirish, qashshoqlikka qarshi kurashish, muhim rol o'ynaydi. Jahonda iqtisodiyotni barqarorlashtirishda korrupsiyaga qarshi samarali mexanizmlarini ishlab chiqish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash hamda ijtimoiy sohani rivojlantirish borasidagi mavjud byurokratik to'siqlar hamda g'ovlarni bartaraf etish chora-tadbirlarini ishlab chiqish masalalariga alohida e'tibop qaratilmoqda.

Korrupsiya bilan bog'liq bo'lgan faoliyatni huquqiy tartibga solishni takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iboratdir. Korrupsiya faoliyatiga to'sqinlik qilish, qonunga xilof ravishda mansabni suistemol qilish, pora olish bilan bog'liq jinoyatlar uchun javobgarlik bilan bog'liq munosabatlar tizimi hisoblanadi.

Korrupsiya faoliyatiga to'sqinlik qilish, qonunga xilof ravishda pora olish bilan bog'liq ilmiy va amaliy muammolarning nazariy tahlili, O'zbekiston Respublikasi va xorijiy mamlakatlarning korrupsiya faoliyatiga to'sqinlik qilganlik uchun javobgarlik belgilangan jinoyat qonuni normalari, o'rganilayotgan muammoga doir ilmiy ishlar, shuningdek ko'rsatilgan toifadagi jinoyatlar bo'yicha sud amaliyotidan iboratdir.

REFERENCES

1. Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi qonuni.(2019) O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 1-son, 2-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 16.01.2019-y., 03/19/516/2484-son; 24.05.2019-y., 03/19/542/3177-son, 2019-y., 2-son, 47-modda).
2. <https://xs.uz/uzkr/post/korruptsiya-va-millij-taraqqiyot-muammo-va-echim>
3. <https://lex.uz/docs/3107036#3109393>
4. <https://lex.uz/docs/1449106>